



## THE TRANSFORMATION OF COTTON GROWING INTO A PRIORITY SECTOR IN UZBEKISTAN AND ITS CONSEQUENCES

**Mansur Khayrullayevich Fayzullayev**

Senior Lecturer, Department of Social and Humanitarian Sciences

Tashkent International University of Chemistry

Email: [mfayzullaev05@mail.ru](mailto:mfayzullaev05@mail.ru)

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Cotton monopoly, agro-industrial integration, specialization and concentration of farms, formation of infrastructure on newly developed lands, land reclamation and water management.

**Received:** 04.05.26

**Accepted:** 05.05.26

**Published:** 06.05.26

**Abstract:** The article highlights the problems associated with the focus on cotton growing in our country by studying the issue of its becoming a priority sector and its consequences. The history and significance of cotton cultivation and its processing in our country, as well as its influence on other sectors, have been studied. The article, based on archival documents in the funds of the National State Archive of Uzbekistan, scientific research by foreign and domestic researchers, monographs, and brochures, is dedicated to the establishment of cotton monoculture in our country and its consequences, and includes conclusions on the topic.

## O‘ZBEKISTONDA PAXTACHILIKNING USTUVOR SOHAGA AYLANISHI VA UNING OQIBATLARI

**Mansur Xayrullayevich Fayzullayev**

Toshkent kimyo xalqaro universiteti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

[mfayzullaev05@mail.ru](mailto:mfayzullaev05@mail.ru)

Toshkent, O‘zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Paxta monopoliyasi, agrosanoat integratsiyasi, xo‘jaliklarni ixtisoslashtirish va konsentratsiyalash, yangi o‘zlashtirilgan yerlarda infratuzilmaning

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda paxtachilikning ustuvor sohaga aylanishi va uning oqibatlari masalasini o‘rganish orqali bu sohaga e‘tibor qaratilishi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar yoritilgan. Mamlakatimizda paxta

shakllanishi, milioratsiya va suv xo‘jaliklari.

yetishtirish uni qayta ishlanishi tarixi va ahamiyati hamda uning boshqa sohalarga ta’siri o‘rganilgan. Maqola O‘zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv hujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida mamlakatimizda paxta yakka hokimligini o‘rnatilishi va uning oqibatlariga bag‘ishlanib, mavzuga doir xulosalarni o‘z ichiga oladi.

## ПРЕВРАЩЕНИЕ ХЛОПКОВОДСТВА В ПРИОРИТЕТНУЮ ОТРАСЛЬ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЯ

**Мансур Хайруллаевич Файзуллаев**

*Старший преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук,*

*Ташкентский международный химический университет*

*Email: [mfayzullaev05@mail.ru](mailto:mfayzullaev05@mail.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Хлопковая монополия, агропромышленная интеграция, специализация и концентрация хозяйств, формирование инфраструктуры на вновь освоенных землях, мелиорация и водные хозяйства.

**Аннотация:** В статье освещаются проблемы, связанные с привлечением внимания к хлопководству в нашей стране путем изучения вопроса о превращении его в приоритетную отрасль и его последствиях. Изучены история и значение выращивания и переработки хлопка в нашей стране, а также его влияние на другие отрасли. Статья, основанная на архивных документах из фондов Национального государственного архива Узбекистана, научных исследованиях зарубежных и местных исследователей, монографиях и брошюрах, посвящена установлению хлопковой монополии в нашей стране и ее последствиям, включая выводы по теме.

**Kirish.** XX asr o‘rtalariga kelib, O‘zbekiston yirik paxta yetishtiruvchi mamlakatga aylandi. Ayniqsa bu jarayon ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda keng avj oldi. Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlatimiz xalq xo‘jaligini qayta tiklash ishlari boshlandi.

Hujjatlar sharxi. Bunda, butun iqtisodiyotni, shu jumladan, paxtachilik sohasini rivojlantirish uchun amaliy harakatlar olib borildi. Ayniqsa, VKP(b) MQ va Ittifoq hukumatining 1945-yil 14-iyundagi “O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida”gi [1], 1946-yil 2-fevraldagi VKP(b) MQ va SSSR XKSning “1946-1953-yillarda O‘zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish tadbirlari to‘g‘risida”gi [1:484],

1947-yil 16-fevraldagi VKP(b) MQ Plenumining “Urushdan keyingi davrda qishloq xo‘jaligini yanada yuksaltirish tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, O‘zbekiston SSR Oliy Soveti 1946-yil 30-avgustda qabul qilgan “O‘zbekiston xalq xo‘jaligini tiklash va rivojlantirishning 1946-1950-yillarga mo‘ljallangan besh yillik rejasi to‘g‘risida”gi [2] qaror va boshqa maxsus qarorlarda xalq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i hisoblangan paxta yetishtirishni ko‘paytirish vazifasi belgilandi.

**Muhokama va natijalar.** Ushbu qaror asosida O‘zbekistonda paxta sanoatini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi va 1946-1953-yillarda davlatga paxta sotishni ikki baravar ko‘paytirish rejasi belgilandi. Belgilangan vazifani bajarish uchun oziq-ovqat yetishtirishga mo‘ljallangan yerlarning kattagina qismini paxtaga ajratish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, irrigatsiya va melioratsiya ishlarini yaxshilash, qishloq xo‘jaligini kompleks mexanizatsiyalashga e‘tibor qaratildi [3].

Shuningdek, O‘zbekiston KP(b) ning X s‘ezdida respublikamizda paxtachilikni tez sur‘atlar bilan rivojlantirishga bog‘liq bo‘lgan amaliy masalalarga e‘tibor qaratildi. Shuningdek, s‘ezdda SSSR Ministrlar Sovetining 1949-yil 4-fevralda qabul qilingan “Kolxoz va sovxozlarda paxtachilikni yanada rivojlantirish” to‘g‘risidagi qarorini [4] ma‘qulladi va bu masalaga e‘tibor qaratildi. Shunga binoan s‘ezdda O‘zbekistonda paxtachilikni yanada rivojlantirish yuzasidan quyidagi amaliy vazifalar rejalashtirildi:

A) 1949-yilda respublikadagi kolxoz va sovxozlarning har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha paxta hosili 20-21 sentnerga yetkazilib, kamida 2 million tonna paxta yetishtirish;

B) Yaqin 4 yil ichida respublikada paxta maydonlari 100-130 ming gektarga kengaytirilishi va barcha paxtakor kolxozlarda o‘tdalali almashlab ekish to‘la o‘zlashtirilishi, har gektar yerdan olinadigan o‘rtacha paxta hosili 25 sentnergacha oshirish;

V) O‘zbekistonda paxtachilikni yanada rivojlantirish uchun zamin tayyorlash yuzasidan zarur bo‘lgan hamma choralar ko‘rilishi, toki keyingi yillar ichida paxta maydonlarini yana 200-250 ming gektar kengaytirish, gektaridan olinadigan o‘rtacha paxta hosilini kamida 30 sentnerga yetkazish kabi vazifalar belgilandi [4:423].

Ushbu s‘ezdda belgilangan vazifalarni bajirish uchun amaliy tadbirlar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, mayda kolxozlarni yiriklashtirish, o‘zlashtirilmagan yangi yerlarni o‘zlashtirish kabi muhim islohotlar amalga oshirildi. Mayda kolxozlarni yiriklashtirilishi bu ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda o‘tkazilgan iqtisodiy tahlil asosida amalga oshirildi. Chunki bu tahlil natijalari respublika kolxozlarining ko‘pchiligi norentabel xo‘jaliklar ekanligini ko‘rsatdi. Negaki, ko‘plab mayda kolxozlarning mavjudligi qishloqda ishlab chiqaruvchi kuchlar

rivojlanishi uchun to'sqinlik qilardi, ya'ni texnika va ishlab chiqarishning boshqa vositalarini qo'llash imkoni mavjud emasdi. Natijada VKP (b) MK va SSSR Ministrlar Sovetining qarori bilan 1950-yilning bahoridan kolxozlarni yiriklashtirish ishlari boshlandi. Jumladan, 1950-yil avgustiga qadar O'zbekistonda 1770 ta kolxoz o'rnida 752 ta yirik kolxozlar tashkil etildi. Kolxozlar yiriklashtirildi lekin shu bilan birga kolxozdagi xo'jaliklari soni ortib bordi. Masalan, respublikada yiriklashtirilgunga qadar har bir kolxozda o'rtacha 104 ta xo'jalik mavjud bo'lgan bo'lsa, islohotlardan so'ng bularning soni 231 taga yetkazildi [5]. Respublikadagi barcha viloyatlarda mayda kolxozlar yiriklashtirildi va shuningdek, paxta ekiladigan maydonlar kengaytirildi. Jumladan, 1954 yilda Surxondaryo viloyatidagi kolxozlar soni 1940-yilga nisbatan qariyb 8 baravar kamaydi va har bir xo'jalikda paxta ekish uchun ajratilgan maydonlar o'rtacha 138 gektardan 1367 gektargacha ko'paytirildi [6].

| Yillar | Paxta maydoni (ming gektar) | Yalpi hosil (ming tonna) | Gektaridan hosildorlik (sentner) |
|--------|-----------------------------|--------------------------|----------------------------------|
| 1945   | 742.3                       | 824.2                    | 11.1                             |
| 1946   | 841                         | 1146.8                   | 13.6                             |
| 1947   | 941.1                       | 1195.3                   | 12.7                             |
| 1948   | 1002                        | 1558.6                   | 15.6                             |
| 1949   | 1059.4                      | 1754.9                   | 16.6                             |
| 1950   | 1134.5                      | 2282.4                   | 20.1                             |
| 1951   | 1152                        | 2361.4                   | 20.5                             |
| 1952   | 1177.2                      | 2466.6                   | 21                               |
| 1953   | 1200.4                      | 2525.5                   | 21                               |
| 1954   | 1392                        | 2785                     | 20                               |
| 1955   | 1370                        | 2577                     | 18.8                             |

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida, ya'ni kolxozlarning yiriklashtirilishi hamma hududlarda ham samara bermadi, lekin ayrim joylarda o'zining samarasini berdi. Masalan, 1951-yilning o'zidayoq, kolxozlar yiriklashtirilgandan so'ng, 131 ta kolxoz 25-30 sentnerdan, 169 ta kolxoz 30-35 sentnerdan, 40 ta kolxoz 35-40 sentnerdan paxta hosilini olishga muvaffaq bo'ldilar. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Uzun va Sariosiyo

tumanlari 1952-yilgi paxta tayyorlash rejasini anchagina oshirib bajardilar. Lekin shunga qaramasdan ba'zi hududlarda kolxozlarni yiriklashtirish ishlarini shoshilinch tarzda olib borilishi paxtachilik sohasiga salbiy ta'sir ham ko'rsatdi. Bunda kadrlar masalasidagi muammolarni hal etish, xo'jaliklararo munosabatlarni yo'lga qo'yish, yiriklashtirilgan kolxozlar ishini tashkil qilish va yangi sharoitlarga ko'nikish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ldi. Respublika kolxozlari ana shunday muammolar sababi bilan 1952-yilgi paxta tayyorlash rejasini bajara olmaganlar [7]. Hatto 1952-1953-yillarda olingan hosil gektariga 21,1 sentnerni tashkil etdi [8]. Bu esa yuqoridagi omillar tufayli yuzaga kelganligini bildiradi.

Paxta yetishtirishning ortib borishi, asosan, qo'shimcha yerlarni paxta maydoniga aylantirish hisobiga ortib bordi. 1949-yil 16-aprelida respublika hukumati tomonidan "Mirzacho'lni o'zlashtirishning navbatdagi tadbirlari to'g'risida" [9] qaror qabul qilinib, yangi o'zlashtirilgan yerlarning asosiy qismi chigit ekishga ajratildi. Natijada paxta ekiladigan maydonlar yildan yilga kengayib paxta yetishtirish ko'rsatkichlari ortib bordi. Hatto bu ko'rsatkich ittifoq bo'yicha eng yuqori o'ringa ega ko'tarildi. Buni quyida keltirilgan jadval orqali kuzatishimiz mumkin.

SSSR respublikalarida 1940-1969-yillarda yetishtirilgan paxta (Ming tonna) hisobida [10]:

| Davlatlar        | 1940 | 1960 | 1965 | 1966 | 1967 | 1968 | 1969 |
|------------------|------|------|------|------|------|------|------|
| O'zbekiston SSR  | 1416 | 2949 | 3904 | 4083 | 4045 | 4011 | 3862 |
| Turkmaniston SSR | 211  | 363  | 553  | 656  | 702  | 712  | 691  |
| Tojikiston SSR   | 172  | 399  | 609  | 631  | 618  | 642  | 626  |
| Ozarbayjon SSR   | 154  | 366  | 335  | 336  | 334  | 333  | 299  |
| Qirg'iziston SSR | 95   | 126  | 167  | 184  | 177  | 177  | 140  |
| Qozog'iston SSR  | 64   | 49   | 86   | 88   | 94   | 70   | 90   |
| Jami             | 2237 | 4289 | 5662 | 5981 | 5970 | 5945 | 5708 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, SSSR respublikalari ichida eng ko'p O'zbekiston SSR da paxta yetishtirilgan. Bu ko'rsatkich yildan yilga ortib borgan. Respublikada paxta yetishtirish uchun yangi qo'riq yerlar o'zlashtirilishi bilan birga buning uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar ishga solingan. Jumladan, shu yillarda suv xo'jaligini rivojlantirishga ham e'tibor kuchaytirilgan. Suvni birinchi navbatda paxtazorlarni sug'orishga sarflanib, g'alla, sabzavot,

poliz, bog' va boshqa ekinlar keyingi navbatda suv bilan ta'minlangan, suv tanqisligi tufayli shaxsiy tomorqa xo'jaliklari suvsiz qolib ketgan. Hamma e'tibor respublikada paxta yetishtirishga qaratilgan. Buning natijasida O'zbekiston SSRda yetishtirilgan paxta dunyo mamlakatlari bo'yicha yetakchi o'rinda bo'lgan. Buni quyida keltirilgan jadval orqali kuzatishimiz mumkin.

1960-1968-yillarda SSSR, O'zbekiston SSR va ayrim kapitalistik mamlakatlarda paxta yetishtirish hamda hosildorligi (ming tonna) hisobida [10:109]:

| Davlatlar                | 1960 yil           |                           | 1968 yil           |                           |
|--------------------------|--------------------|---------------------------|--------------------|---------------------------|
|                          | Paxta yetishtirish | Tola bo'yicha hosildorlik | Paxta yetishtirish | Tola bo'yicha hosildorlik |
| SSSR                     | 1453               | 6,6                       | 2031               | 8,3                       |
| O'zbekiston SSR          | 1004               | 6,9                       | 1384               | 8,6                       |
| AQSh                     | 3107               | 5,0                       | 2356               | 5,7                       |
| Hindiston                | 947                | 1,2                       | 1084               | 1,3                       |
| Braziliya                | 536                | 1,8                       | 607                | 1,6                       |
| Meksika                  | 440                | 5,0                       | 503                | 7,0                       |
| Pokiston                 | 304                | 2,3                       | 520                | 2,9                       |
| Birlashgan Arab amirligi | 478                | 6,0                       | 421                | 6,9                       |
| Turkiya                  | 176                | 2,8                       | 407                | 5,6                       |
| Eron                     | 99                 | 3,0                       | 150                | 4,2                       |
| Peru                     | 133                | 5,3                       | 87                 | 4,4                       |
| Argentina                | 124                | 2,5                       | 73                 | 2,6                       |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston SSRda paxta yetishtirish dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallagan. Lekin ko'p miqdorda paxta yetishtirilishi qishloq xo'jaligining boshqa ekinlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, 1950-yillarning boshlarida mamlakatdagi ekin maydonlarini urushdan oldingi darajaga yetkazib bo'lmadi. Don ekinlarining yalpi hosili 1940-yildagi 615,1 ming tonnadan 443 ming tonnaga, sabzavot 1315,2 ming tonnadan 840,2 ming tonnaga, poliz mahsulotlari 331,9 ming tonnadan 153,4 ming tonnaga

tushib qoldi. Ayni vaqtda sabzavot hosildorligi gektariga 125 sentnerdan 73 sentnerga, poliz mahsulotlariniki 84 sentnerdan 66 sentnerga tushib hosildorlik kamayib bordi [11]. Bundan ko‘rinadiki, paxtachilikni ustuvor sohaga aylanishi qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga zarar yetkazgan.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, mamlakatimizda ikkinchi jahon urushidan so‘ng qishloq xo‘jaligini qayta tiklanishiga, ayniqsa, paxtachilikni rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jaligining paxtachilikka chuqur ixtisoslashtirilishi ilmiy asoslangan iqtisodiy omillardan ko‘ra, ko‘proq Markazning xom ashyoga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan edi. Bunda yangi yerlarni o‘zlashtirilishi mamlakat iqtisodiyotini paxta ishlab chiqaruvchi ulkan sexga aylantirdi. Buning oqibatida hudud iqtisodiyoti bir tomonlama rivojlanib, boshqa tarmoqlarning o‘sishi sun‘iy ravishda to‘xtab qolishiga sabab bo‘ldi. Bundan tashqari davlat tomonidan belgilab berilgan paxta rejasini bajarish maqsadida eng yaxshi sug‘oriladigan yerlar, suv resurslari, mineral o‘g‘itlar va ishchi kuchi faqat paxtachilikka safarbar etildi. Buning natijasida an‘anaviy bog‘dorchilik, uzumchilik va chorvachilik maydonlari keskin ravishda qisqarib ketdi. Bu esa go‘sht, sut va don mahsulotlarining kamayib ketishiga, ichki bozorni ta‘minlay olmasligiga va buning natijasida oziq-ovqat mahsulotlarini tashqaridan olib kelinishiga sabab bo‘ldi.

Bundan tashqari, paxtachilikning ustuvorligi qishloq aholisining turmush darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Mehnat talab qiladigan paxta yetishtirish jarayoniga ayollar va maktab o‘quvchilarining ommaviy jalb etilishi ta‘lim sifatining pasayishiga hamda og‘ir ijtimoiy muhitning shakllanishiga sabab bo‘ldi.

Shuningdek, 1960-1980-yillardagi ixtisoslashtirish siyosati O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida kuchli sug‘orish infratuzilmasini yaratgan bo‘lsa-da, uning salbiy oqibatlari ijobiy natijalaridan ustun bo‘ldi. Bu davr tarixi bugungi kunda qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, klaster tizimini joriy etish va yer-suv resurslarini tejash siyosati naqadar muhim ekanligini anglatadigan katta tarixiy saboq ekanligini ko‘rsatdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. КПСС и Советское правительство об Узбекистане. Сб. док. (1924-1970 гг.). – Ташкент: Узбекистан. 1972. – С. 478, 484.
2. O‘zR MDA. 2454-fond, 6-ro‘yxat, 344-ish, 331-varaq.
3. Yakubova D.T. O‘zbekistonda paxta yakkahokimligining o‘rnatilishi va uning natijalari. Monografiya. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2021. – B. 112.
4. KPSS rezolyutsiyalari va qarorlari. – B. 404, 423.
5. История Узбекской ССР. Том IV. – Ташкент: Фан, 1968. – С. 173.

6. Халиёров Х., и др. Сурхандарьинская область. – С. 56.
7. Gaft M.M. Beshinchi besh yillikda O‘zbekistonda paxtachilik ning rivojlanishi // Fan haqida suhbatlar. №41-42. O‘zbekiston KP Markaziy Komiteti huzuridagi “Qizil O‘zbekiston”, “Pravda Vostoka” va “O‘zbekiston Surx” birlashgan nashriyoti. – Toshkent, 1953. – B. 7-8.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi. 45-fond, 2-ro‘yxat, 15-ish, 53-varaq.
9. Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865-1990 yillar) / D.A.Alimova tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 286.
10. Народное Хозяйство Узбекской ССР в 1969 г. Статистический ежегодник. – Ташкент: Издательство “Узбекистан”, 1970. – С. 109.
11. O‘zR MDA. 1916-fond, 10-ro‘yxat, 4112-yig‘ma jild, 111-varaq.